



## ODAM ORGANIZMINING TUZILISHI (KONSTITUTSIYASI)

Aliyeva Durdonaxon Shukurillo qizi

Mirzo Ulugbek nomidagi

Ozbekiston Milliy Universiteti biologiya fakulteti

3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7381196>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 28<sup>th</sup> November 2022

Online: 30<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

To`qima metafizika, : epiteliy, biriktiruvchi, mushak va nerv, Asteniklar, olixomorflar, kollagen ,retikula, elastik, yog` to`qima.

Odam organizmining tuzilishi haqida bir necha xil fikrlar mavjud. Mexanistik materializm tarafdorlari organizmga a'zolarining (D.Morgani), to'qimalarning (K.Bisha) yoki hujayralarning (R. Virxov) yig'indisi sifatida qaraydi. Nemis olimi R. Virxov organizmni hujayralarning federativ davlatiga o'shatadi va bunda har bir hujayra fedaratsiyasi alohida yashashi mumkinligini aytadi. Organizmni ayrim qismlarini bunday ajratish metafizika, alohida hujayra qismlarini alohida yashay olish xususiyatini vitalizm (vita - hayot) deyiladi. Organizm bu o'zini o'ragan tashqi muhit bilan modda almashinish, o'sish va ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan yuqori tabaqadagi oqsil moddalarning murakkab yig'indisidir. U tarixiy tuzilishga ega bir butun, tashqi muhitning ma'lum bir sharoitlariga moslashgan holda yashaydi. Organizm-hujayralar, to'qimalar, a'zolar, suyuq moddalardan tuzilgan, uning tarkibiy qismlarini bir tomondan

### ABSTRACT

*Insoniyat o'z gavda tuzilishi haqida turli farazlar mavjud. Organizm bu o'zini o'ragan tashqi muhit bilan modda almashinish, o'sish va ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan yuqori tabaqadagi oqsil moddalarning murakkab yig'indisidir. Ushbu maqola gavda tuzilishi haqida qisqacha yoritib beruvchi obyekt*

tomirlarda harakat qiluvchi suyuqlik (humor) bir-biriga bog'lab tursa, ikkinchi tomondan nerv tizimi bir-biriga bog'laydi va ularning faoliyatini tartibga solib idora etadi. Hujayra tirik organizmning elementar zarrachasi, organizm hayot faoliyatining asosi. Hayotning asosiy xususiyatlari: ko'payish, moddalar almashinishi va boshqalar, shu hujayralar tarkibiga kiruvchi oqsillar ishtirokida bo'ladi. Hujayralar orasida hujayralararo modda joylashgan bo'lib, ular suyuq, liqildoq yoki zich holatdagi asosiy modda va turli tolalardan iborat. Hujayralar murakkab mikroskopik tuzilishga ega bo'lib, uning bir necha mikrondan 200 mkmgacha. Har bir hujayra sitoplazma qobig'i, sitoplazma va o'zak (yadro)dan tashkil topgan. Hujayra haqidagi to'liq ma'lumot gistologiya fanida beriladi. To'qimalar kelib chiqishi, tuzilishi va faoliyati jihatidan bir xil bo'lgan hujayra va hujayradan tashqari moddalarning tarixan



tashkil topgan yig'indisidan iborat. Organizmda 4 xil: epiteliy, biriktiruvchi, mushak va nerv to'qima tafovut qilinadi. 1. Epiteliy to'qima (textus epithelialis) bazal membranada yotgan hujayralar qatlamidan iborat bo'lib, uning ostida yumshoq tolali biriktiruvchi to'qima joylashgan. Bu hujayralar tana yuzasi (teri) va shilliq pardalarni qoplab organizmni tashqi muhitdan ajratib himoya vazifasini bajaradi. Epiteliy ichki va tashqi sekretsiya bezlarini bez to'qimasini ham hosil qiladi. Epiteliy bir qavatli va ko'p qavatli bo'ladi. Bir qavatli epiteliy shakl jihatidan silindrik, kubsimon va yassi turlarga bo'linadi.

2. Ichki muhit to'qimasi (tayanch-trofik va himoya to'qimalari, biriktiruvchi to'qima) mezenximadan hosil bo'lib, uning tarkibiga qon, limfa va biriktiruvchi to'qima kiradi. Biriktiruvchi to'qima tuzilishi va faoliyati jihatidan turlicha. Ular hujayralar, kollagen, elastik, retikular tolalardan iborat hujayralararo modda va asosiy moddadan tashkil topgan. Biriktiruvchi to'qimaga xususiy biriktiruvchi to'qima, tog'ay va suyak to'qimalar kiradi. Xususiy biriktiruvchi to'qima yumshoq va zich tolali biriktiruvchi to'qimaga bo'linadi. Biriktiruvchi to'qima tayanch, himoya va trofik (oziqlantiruvchi) vazifalarni bajaradi. Yumshoq biriktiruvchi to'qima fibroblastlardan tashkil topgan, u boshqa turdagi to'qimalarni bir-biriga bog'laydi, a'zolar tarkibidagi bo'shliqlari to'ldiradi. Bu to'qima ko'proq qon tomirlar atrofida joylashadi. Yog' to'qima yumshoq tolali biriktiruvchi to'qima hujayralari sitoplazmasida yog' kiritmalari to'planishidan hosil bo'ladi. U teri ostida, ko'proq qorinparda ostida, charvida va buyrak atrofida hosil bo'ladi. Zich biriktiruvchi to'qima shakllanmagan: ko'p sonli zich chatishgan tolalar va ular

o'rtasidagi oz sonli hujayra elementlaridan tashkil topgan (terining to'r qavatli). Shakllangan zich biriktiruvchi to'qima tolalari dasta shaklida ma'lum bir tartibda va yo'nalishda.

## QOMATNIIG TUZILISHI (KONSTITUTSIYASI)

Agar har bir shaxs organizmining tuzilishi sinchiklab o'rganilsa, uning anatomiyasida o'ziga xos alohida xususiyatlari borligini ko'ramiz. Binobarin, har bir shaxsning morfologiyasi bilan fiziologiyasida ham ozmi-ko'pmi farq borligi aniqlanadi. Ushbu xususiyatlar vrachlarning kundalik ishlarida, turli qomatga ega bo'lgan odamlar kasalligini aniqlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu esa odam qomatini o'rganish zaruratini tug'diradi. Qomat tabiat va jamiyat ta'sirida odamda o'ziga xos morfologik va fiziologik xususiyatlarga ega bo'lgan individual belgilar yig'indisidan vujudga keladi va organizmdagi barcha o'zgarishlarga (betoblikka ham) bog'liq. Odam qomati o'z ajdodidan ortirgan asosiy xususiyatlar yig'indisidan ta- raqqiy etadi. Qomatning rivojlanishida tashqi muhitning ta'siri ayniqsa muhim Odam bo'yining har turli bo'lishi uning nasliga. ijtimoiy sharoitiga. atrof-mu- hitga va iqtisodiy ahvoliga bog'liqdir. Odam qomatining morfologik tuzilishiga qarab V.N. Shevkunenko ularni 3 turga ajratgan.

1. Gipersteniklar yoki braximorflar (keng yelkali past bo'yililar)-bunday odamlarning yelkaları keng, gavdalari vazmin, baquvvat va tiqmachiq, sem bo'ladi. Qo'l va oyoqlari tanasiganisbatan kalta; kalla, ko'krak va qorni dey- arli keng hajmlidir. Ularning qorni ham ko'krasiganisbatan kattadir. Tananing ko'ndalang o'lchami bo'yiga nisbatan uzunroq bo'ladi.



2. Asteniklar yoki olixomorflar (uzun bo'yli, tor ko'kraklilar)-bo'ylari uzun, organizmi zaif, vazni yengil, qo'l va oyoqlari tanalariga qaraganda uzun- roq, kishilar toifasidir. Ularning ko'kraklari qorin qismidan katta va bo'yinlari uzun bo'ladi.

3. Normosteniklar yoki mezomorflar (o'rta bo'ylilar)-yuqorida bayon etilgan giperstenik va asteniklar o'rtasidagi odamlar o'rta bo'ylilar hisoblanadi

Odavgavdasining tashqi tuzilishi ichki a'zolar, qon tomirlar shakliga hamda tuzilishiga ham ta'sir qiladi. Jumladan, giperstenik odamning diafragmasi yuqori joylashgan bo'lsa, yuragi, me'dasi katta hajmli va ko'ndalang o'mashgan: aortasi keng, o'pkasi qisqa va ingichka, ichagi

ko'proq gorizontal yo'nalishda taxlanib yotadi. Jigar, me'da osti bezi, buyraklari va qora jigari (taloq)ning hajmi kattaroq bo'ladi. Asteniklarda esa deyarli hamma a'zolari kichik bo'lib, pastroq joylashadi. Lekin bu turdagi odamning ko'kragiganisbatan o'pkasining uzun bo'lishi uni boshqa barcha a'zolardan ajratib turadi.

Hozirgi kunda tibbiyotni tashkil etuvchilar va amaliy shifokorlar inson salomatligi u yashab turgan muhitning sifati va turmush tarziga to'liq bog'liq ekanligini ko'rsatishmoqda. Bu esa tibbiyotni inson organizmiga ta'sir etuvchi ekologik omillarga ko'proq e'tibor qaratishga yo'naltiradi.

## References:

1. Odam anatomiyasi: F.N. Bahodirov.
2. Odam anatomiyasi: A. Ahmedov.
3. Odam anatomiyasi: Sagatov. T.A., Mirsharipov O'.M.
4. Tibbiy biologiya P.X. Xolikov